

Shaxzoda JALOLOVA*TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi**2-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: I.B. Xudoynazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Hindistonning tabiat va ijtimoiy hayoti haqida berilgan tasvirlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bobur Hindistonning o‘ziga xos iqlimi, o‘simplik va hayvonot dunyosi, shuningdek, bu hududdagi jamiyatning turmush iolo, urf-odatlari va madaniyatini yuksak badiiylik bilan ifodalagan. Mazkur maqola ushbu tasvirlarning tarixiy va adabiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Bobur, Boburnoma, Hindiston, tabiat, jamiyat, tarixiy tasvir, madaniyat, adabiyot, tarixiy manba, Ibrahim Lo‘diy, kasta, Ganga, Yamuna, ijtimoiy tenglik , Amir Temur.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ описаний природы и общественной жизни Индии, представленных в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме». Бабур с высокой художественностью изображает уникальный климат, флору и фауну Индии, а также образ жизни, обычай и культуру местного общества. Настоящая статья направлена на раскрытие исторической и литературной значимости этих описаний.

Ключевые слова: Бабур, Бабурнаме, Индия, природа, общество, историческое описание, культура, литература, исторический источник, Ибрагим Лоди, касты, Ганг, Ямуна, социальное равенство, Амир Темур.

Annotation: This article provides a scientific and theoretical analysis of the descriptions of Indian nature and social life presented in Zahiriddin Muhammad Babur’s work, Baburnama. Babur vividly depicts the unique climate, flora, and fauna of India, as well as the lifestyle, traditions, and culture of its society with exceptional literary skill. This article aims to highlight the historical and literary significance of these depictions.

Keywords: Babur, Baburnama, India, nature, society, historical description, culture, literature, historical source, Ibrahim Lodi, caste, Ganga, Yamuna, social equality, Amir Timur.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) – o‘z davrining buyuk davlat arbobi, iste’dodli sarkarda va iste’molchan shoir. U Farg‘ona vodiysida tug‘ilib, Amir Temurning to‘rtinchchi avlodi sifatida katta siyosiy merosni qo‘lga kiritdi. Bobur hayoti

davomida bir qator siyosiy kurashlarda ishtirok etdi, ko‘plab mag‘lubiyatlar va muvaffaqiyatlarga guvoh bo‘ldi. Uning eng muhim yutuqlaridan biri – Hindistonni zabit etib, o‘sha yerda Boburiylar sultanatiga asos solganidir. Bobur nafaqat siyosatchi, balki adabiyotda ham o‘ziga xos iste’dod egasi edi. Uning “Boburnoma” asari o‘z davrining tarixiy, geografik va madaniy xususiyatlarini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar zamonaviy tarixchilar tomonidan Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistonning o‘rta asrlardagi hayotini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida qabul qilinadi. Boburning Hindistonga yurishining sabablari shundan iboratki, Bobur dastlab Movarounnahr va Samarqandni qo‘lga kiritish uchun kurash olib bordi, ammo Shayboniyxon bilan bo‘lgan ziddiyatlar tufayli bu hududni boy berdi. Keyinchalik, u Afg‘onistonga yo‘l oldi va 1504-yilda Kobulni zabit etdi. Kobul Bobur uchun strategik tayanch hududga aylandi va u bu yerda o‘z armiyasini mustahkamladi. Hindistonning boyligi va tabiiy resurslari, tabiat chuqur ahamiyat kasb etardi. Hindiston o‘sha davrda Osiyoning eng boy va rivojlangan hududlaridan biri edi. Dehli sultonligi zaiflashishi ya’ni Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy bilan uning mahalliy zodagonlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar sultonlikni zaiflashtirgan edi. Yana bir sabab shundan iboratki, Boburning siyosiy maqsadlari mavjud bo‘lib Movarounnahr va boshqa hududlarda mag‘lubiyatdan so‘ng, Bobur o‘z ta’sir doirasini kengaytirish uchun yangi hududlar izlay boshladi. Boburning Hindistonga yurishi 1526-yilda Panipat jangida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetdi. Panipat jangida Bobur 12 ming askar bilan Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik qo‘shtiniga qarshi jang qildi. Bu jangda Bobur zamonaviy qurollar – to‘plar va otliq qo‘shtinlardan foydalanib, jangovor ustunlikka ega bo‘ldi.¹ Bobur jang haqida o‘zining “Boburnoma” asarida shunday yozadi: “Ibrohim Lo‘diy bizga nisbatan son jihatidan ustun edi, ammo bizning qurol-yarog‘imiz va strategiyamiz jangni bizning foydamizga hal etdi. Bu g‘alaba nafaqat bizning jangovar mahoratimiz, balki Allohning inoyati bilan amalga oshdi.” Panipat jangida qozonilgan g‘alaba Bobur uchun Hindistonning eshiklarini ochdi. U qisqa vaqt ichida Dehli va Agrani o‘z qo‘l ostiga oldi va o‘z hukmronligini rasman e’lon qildi. Bobur Hindistonga kelganidan keyin mamlakatni boshqarishning zamonaviy tizimini joriy qildi. U: Yangi soliq tizimini tatbiq etdi; Madaniyat va san’atni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi; Hindistonning turli din va madaniyat vakillari o‘rtasida tenglikni ta’minlashga harakat qildi. Bobur o‘zining Hindiston haqidagi tasvirlarida mamlakatning tabiatni va ijtimoiy tuzilmasini yuksak baholaydi: “Hindiston – beqiyos mamlakat. Bu yerning suv va yer resurslari mo‘l-ko‘l, mevalari noyob, iqlimi esa g‘aroyib.”² Boburning Hindistonga yurishi Osiyo tarixidagi eng muhim voqealardan biridir. U faqatgina yangi hududlarni zabit etib qolmay, balki Hindistonda siyosiy va

¹ <https://byjus.com/free-ias-prep/mughal-empire-babur/>

² Bobur Mirzo. Boburnoma. O‘zbekcha nashri: Muhammadjon Shukurov tarjimasi. Toshkent: “Fan”, 1989-yil.B-125-130.

madaniy uyg‘unlikka erishgan Boburiylar sultanatining asoschisi sifatida tarixda qoldi. Uning merosi bugungi kungacha Hindiston va Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Bobur haqida shunday deydi: “Bobur Mirzo bizning buyuk ajdodlarimizdan biri bo‘lib, uning davlat qurishdagi iste’dodi va madaniyatga qo‘shgan hissasi bugungi avlodlar uchun ulkan ibratdir.” Bobur nafaqat zabit etuvchi, balki o‘zining adabiy va ma’naviy merosi bilan xalqlarni birlashtirgan buyuk shaxs edi.

Bobur Mirzo – Markaziy Osiyoning buyuk allomasi, shoir va davlat arbobi bo‘lib, uning “Boburnoma” asari nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunda ham beba ho tarixiy manbadir. Hindistonning tabiatи va jamiyatini tasvirlashda Bobur o‘zining chuqur kuzatuvchanligi va adabiy mahorati bilan ajralib turadi. Uning yozuvlari faqat geografik yoki madaniy tavsif emas, balki tarix va antropologiya uchun qimmatli manbadir.³ Hindistonning aholisi haqida so‘z yuritar ekan, Bobur uni murakkab, xilma-xil va o‘ziga xos jamiyat sifatida ta’riflaydi. Asarning har bir qismi Hindistonning geografik o‘rni, tabiatи, agrar tizimi va ijtimoiy tuzilmasini o‘rganishga imkon beradi. Bobur nigohida mo‘jizalar mamlakati hisoblangan Hindiston tabiatи haqida yozar ekan, uni yuksak baholaydi: “Hindiston – o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot olamiga ega. Bu yerda shamollar shiddatli, daraxtlar ulkan va mevalar noyob. Qishning sovuq kunlari yo‘q, ammo yozning jaziramasi insonni toliqtiradi.”⁴ Boburning ta’kidlashicha, Hindiston turli iqlim zonalarini o‘zida mujassam etgan. Uning yozuvlarida Ganga daryosi va uning atrofidagi yerlarning serhosilligi alohida ta’kidlanadi. Professor Richard Foltz bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Bobur Hindistonning ekologik xilma-xilligini mukammal tarzda tasvirlagan birinchi tarixchilar orasida edi.”⁵

Boburning tasvirlashiga ko‘ra, Hindistondagi suv resurslari faqatgina qishloq xo‘jaligiga emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ham ta’sir ko‘rsatgan. U quyidagicha ta’riflaydi: “Ganga daryosi atrofidagi dalalar yil davomida serhosil bo‘ladi. Bu yerning aholisi qishloq xo‘jaligi bilan mashg‘ul bo‘lib, asosiy daromadini sug‘orma yerlar orqali oladi.” Boburning kuzatuvlariga ko‘ra, Hindistonda uchraydigan o‘simlik va hayvonot turlari betakror edi. U mango va banan daraxtlari, shuningdek, yo‘lbars, fil kabi hayvonlarni tasvirlaydi. Bugungi ekologlar bu tasvirlarni Hindistonning biologik xilma-xilligi haqidagi dastlabki yozuvlar sifatida baholashadi. Rang-baranglik va murakkablik, Boburning Hindiston jamiyat haqidagi fikrlari uning ijtimoiy kuzatuvlaridagi aniqlik va chuqurlikni ko‘rsatadi: “Hindistonning aholisi turli tillarda gaplashadi, urf-odatlari xilma-xildir. Bu yerda diniy e’tiqodlar rang-barang va

³ <https://brightuzbekistan.uz/en/founder-of-the-baburid-dynasty/>

⁴ Thackston, Wheeler M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. Oxford University Press, 1996.P.215-218.

⁵ Foltz, Richard. The History of the Environment in Central Asia. Oxford University Press, 2017.P.78-80.

bir-biridan juda farqlanadi.”⁶ Bobur Hindiston jamiyatining qat’iy tabaqaviy tuzilishini tasvirlaydi. U kasta tizimi va uning jamiyatga ta’sirini kuzatib, bu tizimning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishini qayd qiladi.

Doktor Irfan Habib bu borada quyidagicha yozadi: “Boburning Hindiston jamiyati haqidagi yozuvlari tarixchilar uchun qimmatli ma'lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. U bu tizimning jamiyatdagi murakkablik va o‘zaro munosabatlarga qanday ta’sir qilganini ochib bergan.”⁷ Bobur hind jamiyatining madaniy jihatlarini ham alohida ta’kidlab o‘tgani: “Hindlar o‘z diniy marosimlariga sodiq. Ular san’at va musiqaga katta e’tibor beradi. Ularning me’morchiligi g‘aroyib va o‘ziga xosdir.”⁸ Boburning Hindiston haqidagi yozuvlari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki bugungi ekologiya, tarix va antropologiya uchun ham muhim hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Bobur merosi haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Bobur Mirzoning asarlari biz uchun madaniy o‘tmishimizni anglash va keljakni belgilashda ulkan ilhom manbaidir.”⁹ Bugungi kunda Boburning asari xalqaro ilmiy doiralarda o‘rganilib, uning yozuvlari mintaqaviy tarix uchun qimmatli manba sifatida qabul qilinmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Bobur Hindistonni har tomonlama idora qilar ekan, e’tiborga molik jihatlarni hech qachon ko‘zdan qochirmadi. Uning tabiatiga o‘zgacha mehr va muhabbat bilan boyigan qalbi, jamiyatiga ham mehr ulashishdan to‘xtamadi. Hindiston uchun qilgan barcha ishlarni uning jamiyati manfaatini ko‘zlagan holda amalga oshirardi. Butun hukmronligi mobaynida hind xalqining ertasi uchun jon kuydirdi, shu bilan birga turk va hind birligi munosabatlariga yangidan asos soldi, bu munosabatlarni rivojlantirishda ham moddiy ham ma’naviy jihatdan ko‘pgina ishlarni amalga oshirdi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://byjus.com/free-ias-prep/mughal-empire-babur/>
2. Bobur Mirzo. Boburnoma. O‘zbekcha nashri: Muhammadjon Shukurov tarjimasi. Toshkent: “Fan”, 1989-yil.B-600.
3. <https://brightuzbekistan.uz/en/founder-of-the-baburid-dynasty/>
4. Thackston, Wheeler M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. Oxford University Press, 1996.
5. Foltz, Richard. The History of the Environment in Central Asia. Oxford University Press, 2017.P.290.
6. ¹ Habib, Irfan. The Agrarian System of Mughal India. Aligarh Muslim University Press, 1999.P.400.
7. Mirziyoyev, Shavkat. Buyuk ajdodlar merosini e’zozlash. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020-yil.

⁶ Bobur Mirzo. Boburnoma. O‘zbekcha nashri: Muhammadjon Shukurov tarjimasi. Toshkent: “Fan”, 1989-yil.B-125-130.

⁷ Habib, Irfan. The Agrarian System of Mughal India. Aligarh Muslim University Press, 1999.P.56-59.

⁸ Thackston, Wheeler M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. Oxford University Press, 1996.P.215-218.

⁹ Mirziyoyev, Shavkat. Buyuk ajdodlar merosini e’zozlash. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020-yil.B-45-47.